

SHARG'UN KO'MIR KONI GEOLOGIYASI

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti*

*Neft-gaz va konchilik ishi kafedrasи assistenti*

**Axmatov Sobir Farkod o'g'li**

[axmatovsobir17@gmail.com](mailto:axmatovsobir17@gmail.com) Tel:+998900323983

**FQKG21A Guruh talabasi: Eshonqulov Ikrom Ilhom o'g'li.**

[ikromeshomqulov@gmail.com](mailto:ikromeshomqulov@gmail.com) Tel:+998992037980

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Sharg'un ko'mir konining geologik tuzilishi poleozoy, trias, yura, bo'r, paleogen, neogen va to'rtlamchi yoshlarga xos bo'lgan cho'kindi hosilalar ishtirok etadi. Ko'mir koni maydoni quyi va o'rta yura kontinental yotqiziqlari bilan qoplangan. Kesmalarda yura davrining sanjar, gurud, degibadam va tangiduval svitalarga ajratiladi. Svitalar gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, ko'mirli argillitlar va ko'mir qatlmlaridan tashkil topganligi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Terrigen, koordinatlari, kontinental, konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar, ko'mirlar, pastkamlik, klaren-dyurenli.

Sharg'un ko'mir koni ma'muriy - hududiy jihatdan Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida ya'ni Hisor tog' tizmasining janubiy qanotidagi Machitli tog' yon bag'rida joylashgan. Sariosiyo (Uzun posyolkasi) temir yo'l stansiyasidan 30 km shimolda joylashgan. Geografik koordinatlari; shimoliy kengliklari  $38^{\circ}31'21''$ , sharqiy uzoqliklari  $67^{\circ}41'49''$ .

Rayonni geologik tuzilishida poleozoy, trias, yura, bo'r, paleogen, neogen va to'rtlamchi yoshlarga xos bo'lgan cho'kindi hosilalar ishtirok etadi. Ko'mir koni maydoni quyi va o'rta yura kontinental yotqiziqlari bilan qoplangan. Kesmalarda yura davrining sanjar, gurud, degibadam va tangiduval svitalarga ajratiladi. Svitalar gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, ko'mirli argillitlar va ko'mir qatlmlaridan tashkil topgan. Ko'mirlashgan qatlamlar sifatida sanjar, gurud svitalar quyi va o'rta qismlari degibadam svitasining yuqori qismlari aniqlandi.

Ko'mirli yotqiziqlar kesmasi tuzilishida terrigen yotqiziqlarning har xili ishtirok etdi. Bular asosan konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar va ko'mirlar.

Yura ko'mirli hosillarning iakillanishi issiq, nam iqlimda, o'simliklarga boy qoplamlari bo'lgan rel'efning pastkamlik sharoitlarida kechgan. Botqoqlik sharoitlarda dastavval tuproq gumusi to'planishi tufaqli torf hosil bo'lgan, keyinchalik ular ko'mirga aylanib ketgan.

Tadqiqot maydoni, strukturaviy- tektonik rayonlashtirish

bo'yicha, Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy bo'laklariga kiradi va Surxonov antiklinalini shimoliy-sharqiy tutashuvlarida joylashgan.

Ish hududlarida intruziv faoliyatning keng darajada namoyon bo'lishi bilan birgalikda, proterozoy yotqiziqlari taraqqiy etgan, shuningdek mezzo-kaynazoy cho'kindilari to'liq majmuada kuzatiladi.

Janubiy O'zbekistonda ko'mirlarni o'rganish bo'yicha ko'p tadqiqotchilar tomonidan ko'lamli ishlar olib borilgan. Ularning orasidan S.I Levitskiy, I.E.Gubin, Y.M.Kuzichkina, P.A.Shaxtman, O.D.Rusakova, G.S.Chikrizov, Y.R.Repman, N.I.Plaxuta, A.P.Vasilev, A.F.Nikolaeva, T.A.Sikstel, B.Z.Yaskovich, A.I.Ginzberg, E.T.Nikolaeva, T.A.Lugodtseva,

N.S. Kudryashev va boshqa tadqiqotchilarning o'tkazgan tadqiqotlarning alohida ta'kidlash lozim. Ko'p hollarda ushbu ishlar qidirish-baholash bosqichlarida tugallangan va kamroq ishlar ko'mir uyumlarining tarkibi va hosil bo'lish sharoitlariga bag'ishlangan.



**1- rasm. "Sharg'un ko'mir" konining ko'mir qatlaming tabiiy ochilmasi.**

Ko'mir qatlamlarining kesmalari, ularning barqarorligini va qalinliklarini o'rganishlar uchta asosiy o'lkani ajratishga imkon beradi, bular: *ahamiyatsiz qalinliklardi* ( $0.1\text{-}1.0\text{ m}$ ), *barqaror bo'lgan ko'mir qatlamlari tarqalgan viloyatlari; muhim salinlikdagi* ( $2.0\text{-}3.0\text{ m}$ ) *kuchsiz barqaror bo'lgan ko'mir qatlamlarni rivojlanish viloyatlar; muhim bo'lgan* ( $1.0\text{-}10.0\text{ m}$ ) *qalinlikdagi yaxshi barqaror bo'lgan ko'mir qatlamlarini tarqalish viloyatlar.*

Puch tog' jinslar qatlaming tarkibi argelit, alevrolit va kam miqdorda peschanikdan tashkil topgan. Bundan tashqari, qatlaming quyi va o'rta qismida mineralizatsiyalashgan ko'mir pachkalari bor bo'lib, pachka qatlaming qalinligi 0,20 metrdan 1,20 metrgcha o'zgarishi kuzatiladi.

Ko'mir qatlami qalinligi barqaror emas. Qatlaming qalinligi 3,85 metrdan 13,68 metrgacha o'zgaradi. Ko'mir qatlaming o'rtacha qalinligi 7,57 metrni tashkil etadi. Qatlaming o'rtacha qiyalik burchagi  $45\text{-}48^\circ$  ni tashkil qiladi.

"G'arbiy" qismni o'rganish natijalariga ko'ra qatlam qalinligi 0,23 metrdan 14,60 metrgacha o'zgaradi. Shimoliy-sharqda (shaxta maydonining qanoti) qatlam oddiy tuzilishga ega, qatlam qalinligining o'zgarishi 3,50-4,40 metrdan 9,12 metrgacha yetadi.

Janubda, Sharg'un soyidan 50-100 metrda qatlam yer yuziga chiqqan. Qatlaming qalinlinligi 2,0-3,0 metrdan 14,93 metrgacha o'zgaradi. Qatlaming ba'zi bir qisimlarida qatlaming 2-3 pachgaga bo'linganligi kuzatiladi. Pachkalarning qalinligi 0,23 metrdan 3,33 metrgacha o'zgaradi. Puch tog' jinslari qatlami alevrolit va algeritlardan tashkil topgan, qalinligi 0,2-0,8 metrni tashkil etadi. "Rug'an-rexta" dagi ko'mir qatlami qalinligi 0,20-11,38 metr, o'rtacha qalinligi esa 4,55 metrni tashkil etadi. Qatlam tuzilishi murakkab. Odatda qatlama 1-4 ta argellit qatlami uchraydi, ko'mir argelliti, ba'zida peschanik uchrab ko'mir qatlamini 2-5 taga bo'ladi. Puch tog' jinslari qatlaming qalinligi 0,04-0,89 metrgacha yetadi. Argellit qatlami ko'mir qatlaming o'rtasida yoki yuqori qismida uchraydi. Ko'mir qatlaming umumiy foydali qalinligi 0,2 metrdan 9,91 metrgacha bo'lib, o'rtacha qalinligi 4,07 metrni tashkil etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. SSSR Davlat zahiralari qo'mitasi va hududiy zaxiralar qo'mitasiga ko'mir va neft slanetslari zaxiralarini hisoblash bo'yicha materiallarni taqdim etishning mazmuni, dizayni va tartibi bo'yicha ko'rsatmalar. M., SSSR Davlat zaxiralari qo'mitasi, 1984. 40 b.

2. Devon jinslarining muhandislik-geologik xususiyatlarini o'rganish va ularning ko'mir konlarida barqarorligini bashorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar va uslubiy tavsiyalar. M., VSEGINGEO. 1982. 93 b.

3. Ko'mir va moyli slanets konlarini qidirish jarayonida ular bilan bog'liq qattiq foydali qazilmalar va komponentlarni o'rganish va baholash bo'yicha ko'rsatmalar. M. Fan. 1987.135.

4. Geologik qidiruv ishlarida ko'mir qatlamlari va xos jinslarning gaz tarkibini aniqlash va bashorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar. M., Nedra, 1977, 96 p.

5. Ko'mir va moyli slanets konlariga zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar. M., SSSR Davlat zaxiralari qo'mitasi. 1983.46.

6. Kudryashev N.S. O'rta Osiyo Quyi mezozoy ko'mir provinsiyasining janubiy chetidagi ko'mirli havzalar. Toshkent, muxlis. 1976. 110 b.